# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4 (2)

2026
APREL



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, aprel.*



**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... 16
**PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o‘g‘li**

MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL ..... 25
**Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich**

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI ..... 30
**Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi**

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ..... 42
**Xasanov Sardor Xazratkulovich**

IQTISODIY O‘SISH SIFATI VA UNI KO‘RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI ..... 50
**Axmedov Xasanjon Muxamadovich**

IQTISODIY O‘SISH SIFATI VA UNI KO‘RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI ..... 55
**Axmedov Xasanjon Muxamadovich**

ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA’SIRI ..... 60
**Hayitov Jamshid Xolboyevich**

KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 65
**Ortiqov Husan Usmonaliyevich**

DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 70
**Xamidova Zarifa Urol qizi**

ISTE’MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ..... 74
**Ismailova Shaxnoza Uktamovna**

XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG‘ALLIKKA TA’SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO‘RSATKICHLAR TIZIMI ..... 77
**Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich**

BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..... 84
**Dadajonova Madina Ravshan qizi**

ISTE’MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ..... 89
**Ismailova Shaxnoza Uktamovna**

MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL ..... 94
**Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz**

ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA’SIRI ..... 100
**Hayitov Jamshid Xolboyevich**

IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS’ GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN ..... 105
**Maxmudov Rahimjon**

MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH ..... 109
**Abduraxmonova Gulmira**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ..... 114
**Teshabayev Dilmurod Boxodir o‘g‘li**

FARG ‘ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI........120
**Tuychieva Odina Nabiyevna**
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY........131
**Mirzaev Kulmamat Djanzakovich**
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI........140
**Ortiqov Husan Usmonaliyevich**

KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI........144
**Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna**

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH........149
**Xasanov Sardor Xazratkulovich**

IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI........156
**Odinayev Ravzatullo Asatulloyevich**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH........161
**Karimov Alibek Valievich**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH........167
**Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o‘g‘li**

“O‘ZBEKISTON GTL” MAHSULOTLARNINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG‘ILAR OLISH ISTIQBOLLARI........173
**Ro‘ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux**

HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA’MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI........179
**Marqayev Xurshid Aliqulovich**

ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH........183
**Zaripova Sayohat Zafarovna**

XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)........188
**Oktamjonova Gulira’no Ikromjon qizi**

BUXORO VILOYATI UY XO‘JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOLI: SO‘ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI........192
**Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma’mura**

DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..199
**Mirzaev Kulmamat Djanzakovich**

QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI........203
**Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI........209
**Yusupov Farhod Adamboyevich**

TASVIRLARDAN YO‘L BELGILARINI TANIB OLISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH........214
**Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich**

OLIY TA’LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA........218
**Kurbanov Baxodir Negmatullayevich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI........222
**Ashurova Shaxnoza Almasovna**

DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH........226
**Meliboyev Askar Eshmuratovich**

ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА........231
**Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.**

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ........237
**Садиков Жахонгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуканмед кизи**

РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ........243
**Мирджураев Сарвар Алишер угли**

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI........246
**Isoqov Zafarjon Zokirjonovich**

AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI........250
**O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich**

ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО........259
**Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид**

ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЁННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ........265
**Давронов Олимбек, Туляганов Азиз**

PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI........271
**Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich**

RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI........276
**Abdullayeva Zulfiya Izzatovna**

MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA)........279
**Azimova Maxfuza Rashidovna**

QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOYILLARI........284
**Xolov Xamza Tojiddinovich**

O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH........292
**Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna**

A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY........297
**Ochilova Intizor Sadikovna**

QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH........303
**Sindarov Fazliddin Kaxramonovich**

MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI........312
**Odilova Malika Abdushukur qizi**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQARISH SANOATIGA JORIY ETISH ........ 317
**Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich**

NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOBI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI ........ 321
**Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich**

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ........ 326
**Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li**

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TENDENSIYALARI ........ 332
**Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich**

USING ENGINEERING MODELS TO MEASURE SME RISKS IN UZBEKISTAN ........ 340
**Djumabayeva Dilobar Asatillayevna**

BANK FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ASOSIY MASALALARI ........ 347
**Yusufov Javohirtshoh Ozod o'g'li, Xolmirzayev Elbek Baxtiyorovich**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JARAYONIDA TALABALARNING IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 353
**Meyliyeva Shoxista Rustamovna**

ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ ........ 358
**Усманова Азиза Баходировна**

O'ZBEKISTONDA ELEKTR YORITISH MAHSULOTLARI BOZORINI INNOVATSION LOKALIZATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DINAMIKA, TAHLIL VA PROGNOZ ........ 363
**Jurayev Murotjon Sotivoldiyevich**

HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA REYTINGLASH ........ 371
**Kosimov Bobir Abdigafarovich**

BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH ........ 376
**Amirov Shavkat Rahmatullayevich**

ОСНОВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 383
**Мурадов Алишер Курбанбаевич**

ФОРМИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПАРАДИГМЫ АГРОТУРИЗМА КАК УСЛОВИЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ........ 390
**Усманова Диляфруз Каршиевна**

WAYS TO IMPROVE THE REGIONAL STRUCTURE OF THE INDUSTRY OF NAVAI REGION ........ 396
**Uralov Eliboy Omonovich**

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG'INI TAKOMILLASHTIRISHDA SAMARALI XORIJIY TAJRIBA ........ 400
**Safarova Shahzoda**

НАЛОГОВОЕ СТИМУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА ........ 405
**Рафиева Зарина Хусановна**

INDUSTRY 4.0 SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI ........ 410
**Djuraeva Guzal Shavkatovna**

SUG‘URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR........414
**Xalikulova Shirin Utkir qizi**

TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR SIFATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI........418
**Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich**

ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СЛОВАРЯ И ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА........425
**Рихсибоева Нигора Низомиддин кизи, Тоймухамедова Дилобар Хуснитдиновна**

TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI........434
**Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o‘g‘li**

KAM SUV TALABCHAN SEMENT OLISH UCHUN RATSIONAL TARKIBNI TADQIQ QILISH........440
**X.V. Yusupov, Babayev Sultonbek Sunnat o‘g‘li**

ENHANCING THE EFFICIENCY OF ISLAMIC FINANCING MECHANISMS IN EMERGING ECONOMIES: EVIDENCE FROM MURABAHA-BASED INSTRUMENTS AND PUBLIC-PRIVATE INVESTMENT MODELS........445
**Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li**

TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI........453
**Ibragimov Husen Ismailovich**

STUDIES ON OBTAINING AZOSUPERPHOSPHATE BY TREATING HIGH-CARBONATE, LOW-GRADE CENTRAL KYZYLKUM PHOSPHORITES WITH VARIOUS DOSAGES OF AMMONIUM SULFATE AND SULFURIC ACID........457
**Saidov Hakimboy O‘rinboyevich**

HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQARISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH OMILLARI........463
**Avliyaqulov Xudoyberdi, Ollokulova Feruza Mansurovna**

NAVOIY VILOYATI SANOATI RIVOJLANISHINI BANDLIK VA INVESTITSIYA OQIMLARI ASOSIDA MODELLASHTIRISH........466
**Baqoyev Husan Nuriddinovich**

TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI........474
**Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o‘g‘li**

YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA INTEGRAL KO‘RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH........480
**Rustamov Umidjon Xayitboyevich**

AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI........485
**O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich**

TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMLARIDA XARAJATLARNI KAMAYTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO‘LLARI........494
**Olimov Maqsudjon Komiljon o‘g‘li, Saydullayeva Dilnoza Komil qizi**

BENTONIT YORDAMIDA ISHLATILGAN TURBINA MOYLARINI TOZALASH ASOSIDA BAZAVIY MOY OLISH IMKONIYATLARI........502
**Salomatov Behruz To‘ymurodovich, Panoyev Nodir Shavkatovich, Safarov Jasur Alijon o‘g‘li**

INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARIDA QAROR QABUL QILISH VA KOMMUNIKATSIYA SAMARADORLIGI........506
**Sotvoldiyeva Xurliqo G‘ayratjon qizi**

CHEMICAL–MINERALOGICAL CHARACTERIZATION AND DRY BENEFICIATION TECHNOLOGY OF FELDSPAR FROM THE SULTAN UVAYS DEPOSIT ..... 512
**Buranova Dinara Baxtiyarovna**

TRANSPORT LOGISTIKASIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI ORQALI YUK TASHISH JARAYONIDAGI TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASHNING IQTISODIY AHAMIYATI ..... 520
**Jabborov Islom Xusan o'g'li**

MAGNIT O'ZAGI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORLARDA MEXANIK ZO'RIQISH VA ISROFLARNI KAMAYTIRISH HAMDA TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MAQSADIDA ELLIPS KESIMNING OPTIMAL PARAMETRLARINI TANLASH ..... 524
**Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna**

ОТ ДЕКЛАРАЦИЙ К ДЕЙСТВИЮ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ БАРЬЕРЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ..... 531
**Салахутдинова Юлдуз Голибовна**

ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI ISHINI SUN'IY INTELLEKT ORQALI BASHORAT QILISH VA YAXSHILASH ..... 536
**Axmadjonov Ixtiyorjon Rovshanjon o'g'li, Umurzakova Dilnoza Maxamadjanovna**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI QAYTARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN RISKKA ASOSLANGAN MODEL ..... 542
**Tuxliyev Bozor Karimovich, Dusiyarov Sherzod Xolmuratovich**

O'ZBEKISTONDA AGROFOTOVOLTAIKA: ILMIY-AMALIY RIVOJLANISH, PILOT LOYIHALAR VALIDATSIYASI VA ME'YORIY-HUQUQIY ISTIQBOLLAR ..... 552
**Shog'o'chqorov Sanjar Qodir o'g'li**

MINTAQAVIY INFRATUZILMANING IJTIMOIY TABAQALASHUVGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 563
**Babajanova Dilfuza Abdurasulovna**

SANOAT KORXONALARIDA KLASTERLASHUV JARAYONLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI ..... 568
**Xusanova Malohat Mingnorovna**

ПРИМЕНЕНИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФИНАНСОВОМ УЧЁТЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОПЕРЕРАБОТКИ ..... 574
**Икрамова Хилола Ровшан кизи**

SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH ..... 583
**Nurova Farog'at Salohiddin qizi**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING VA AUTSTAFFINGDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ..... 590
**Fayzullayev Nurulla Baxromovich**

TIJORAT BANKLARIDA YASHIL DEPOZITLAR VA YASHIL KREDITLAR HAJMINI OSHIRISH YO'LLARI . 596
*Berdiyev Akram O'ktamovich*

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 601
**Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi**

DAVLATNING IJTIMOIY SOHA MUASSASALARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 608
**Hasanov To'lqin Axmatovich**

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH MARKAZLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 616
**Urazov Sadulla Shodiyevich**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDOSINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI ........ 621
**Turayev Abduvoxid Kuldashevich**

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI ........ 625
**Junaydullaev Mels Asliddin o'g'li**

ECONOMIC SOLUTIONS OF THE COLLECTOR SYSTEM FOR THE EFFECTIVE USE OF THE UNDERGROUND ENVIRONMENT IN URBAN PLANNING........ 630
**Usmonov Quvvat Turdievich, Orazbayeva Nazokat Maksetovna, Usmonova Madina Quvvat qizi**

SUN'IY INTELLEKT VA MASHINALI O'RGANISH TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI HUDUDLAR VA TARMOQLAR KESIMIDA TAHLIL QILISH ........ 635
**Muxamadjonova Durdona Adashboy qizi**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING ROLI ........ 642
**P.SH. Usmonov**

ASINXRON MOTORLARDAGI TASHQI SOCHILMA MAGNIT MAYDONINI O'LCHASH ORQALI DIAGNOSTIKA QILISH........ 646
**Pirmatov Nurali, Bekishev Allabergen, Kurbonov Najmiddin, Jalilov Akobir**

ОСОБЕННОСТИ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ ........ 652
**Х.Б. Убайдуллаев**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 659
**Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich**

"QUYUV MEXANIKA ZAVODI" AJDA ASOSIY VOSITALARNING BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI........ 664
**Suyunova Zuxra Bahodir qizi**

RAQAMLI IQTISODIYOTDA MILLIY TO'LOV TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 670
**Amonov Alisher Rajab o'g'li**

VALYUTA BOZORI KUTILMALARI VA ISHONCH OMILINING MILLIY VALYUTA BARQARORLIGIDAGI ROLI: KUTISHLAR NAZARIYASI ASOSIDA TAHLIL ........ 675
**G'afurov Olimjon G'olib o'g'li**

O'ZBEKISTON BANK AMALIYOTIDA ISLOM MOLIYASI QOIDALARIGA AMAL QILUVCHI BANKLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH........ 679
**Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li**

ИСКОННЫЕ СЛОВА, ЗАИМСТВОВАНИЯ И КАЛЬКИРОВАНИЕ В ГЕНДЕРНОЙ ЛЕКСИКЕ РУССКОГО ЯЗЫКА: ДИАХРОНИЧЕСКИЙ И СИНХРОНИЧЕСКИЙ АСПЕКТЫ ........ 687
**Худойкулова Феруза Меликуловна**

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY SAMARADORLIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI..... ........ 693
**Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li**

JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISHDA XALQARO FISKAL RAG'BATLANTIRISH TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTONDA QO'LLANILISHI: IJTIMOIY-EKOLOGIK YONDASHUV ........ 700
Saidrasulov Ibrohim Ixtiyor o'g'li

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ICHKI AUDITNI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI ........ 705
Maxmudova Sharifa Elmurodovna

DEVELOPMENT OF E-LEARNING AND EDUCATIONAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN ........ 713
Akhrorova Munavvar, Elshodbek Musayev, Fazilat Kamalova, Rahmatjon Erkaboyev, Sabrina Ziyakulova

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MAJBURIYATLARNING IQTISODIY MOHIYATI, TASNIFI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 721
Amirov Askar Aktamovich

SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY JIHATLARI ........ 725
Mamadjanov Shuhrat Jalolidinovich

BUDJETLARARO MUNOSABATLAR ORQALI HUDUDLAR O'RTASIDAGI MOLIYAVIY NOMUTANOSIBLIKNI BARTARAF ETISHNING NAZARIY JIHATLARI ........ 730
Alimqulov Hikmatulla Baxrom o'g'li

SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI TUPROQLARINING XOSSALARI VA ULARNING SIFAT KO'RSATKICHLARI ........ 735
Botirov Behzod Bahodir o'g'li

DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MONITORING TIZIMLARINING FISKAL SAMARADORLIKKA TA'SIRI ........ 740
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li

O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING O'ZGARISH TENDENSIYALARI ........ 745
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li

BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGI VA ULARNI BAHOLASH ........ 750
Avazbek Jo'rayev

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA TRANSFORMATSION OMILLARI ........ 757
Aripov Ulug'bek Bahodirovich

MEHNAT HAQI FONDINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH ........ 763
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li

NOMODDIY AKTIVLAR YARATISHGA QARATILGAN TADQIQOT XARAJATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI ........ 766
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich,

QURILISH KORXONALARIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI770
Toshimov Azizbek Hakimovich,

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI REJALASHTIRISH ........ 773
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich

# AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI REJALASHTIRISH

**Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
n.qurbonov@tsue.uz
**ORCID:** 0009-0005-7188-3925

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini rejalashtirish jarayonida investitsiya xatarlarini kompleks baholash va hududiy investitsion salohiyatni aniqlash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda korporativ, bozor va moliyaviy risklarning integrallashgan bahosiga asoslangan yangi risk ko'rsatkichi taklif etilib, uning asosida investorlar, banklar va emitentlar uchun aniq "risk mezoni"ni belgilash imkoniyati asoslangan. Xususan, risk ko'rsatkichining 0,28 dan 0,16 gacha bo'lgan qiymatlari "juda yuqori xavf" zonasi sifatida, 0,42 darajasi esa moliyaviy tiklanish bosqichi boshlangan, biroq investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qo'shimcha kafolatlar talab etiladigan holat sifatida baholangan. Shuningdek, maqolada milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi va maqsadga muvofiqligini aniqlashda mahalliylashtirish hamda ixtisoslashuv koeffitsiyentlaridan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini rejalashtirishda risklarni oldindan aniqlash, hududiy iqtisodiy imkoniyatlarni baholash va moliyalashtirish qarorlarining asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *aksiyadorlik jamiyatlari, investitsiya loyihalari, investitsiyalarni rejalashtirish, investitsiya xatarlari, korporativ risk, bozor riski, moliyaviy risk, risk mezoni, mahalliylashtirish koeffitsiyenti, ixtisoslashuv koeffitsiyenti, hududiy investitsion salohiyat, milliy iqtisodiyot, investitsiya samaradorligi, moliyalashtirish kafolatlari.*

***Annotation.*** *This article examines the planning of investment projects by joint-stock companies based on the comprehensive assessment of investment risks and the evaluation of regional investment potential. The study proposes a new investment risk indicator based on the integrated assessment of corporate, market, and financial risks, which enables the formation of a clear "risk criterion" for investors, banks, and issuers. In particular, values of the risk indicator ranging from 0.28 to 0.16 are classified as a "very high-risk zone", while a value of 0.42 indicates the beginning of financial recovery, although additional guarantees are still required for project financing. The article also substantiates the use of localization and specialization coefficients to determine the efficiency and feasibility of attracting investments into the national economy from the perspective of economic growth and regional reproduction processes. This approach serves to identify investment risks in advance, assess regional economic opportunities, and improve the validity of investment project planning decisions in joint-stock companies.*

***Keywords:*** *joint-stock companies, investment projects, investment planning, investment risks, corporate risk, market risk, financial risk, risk criterion, localization coefficient, specialization coefficient, regional investment potential, national economy, investment efficiency, financing guarantees.*

***Аннотация.*** *В данной статье исследуются вопросы планирования инвестиционных проектов акционерными обществами на основе комплексной оценки инвестиционных рисков и определения регионального инвестиционного потенциала. В исследовании предложен новый показатель инвестиционного риска, основанный на интегральной оценке корпоративных, рыночных и финансовых рисков, позволяющий сформировать четкий "критерий риска" для инвесторов, банков и эмитентов. В частности, значения показателя риска в диапазоне от 0,28 до 0,16 классифицируются как "зона очень высокого риска", а значение 0,42 характеризует начало финансового восстановления, при котором для финансирования инвестиционных проектов необходимы дополнительные гарантии. Также в статье обоснована необходимость использования коэффициентов локализации и специализации для определения эффективности и целесообразности привлечения инвестиций в национальную экономику с точки зрения экономического роста и региональных воспроизводственных процессов. Данный подход способствует предварительному выявлению инвестиционных рисков, оценке региональных экономических возможностей и повышению обоснованности решений по планированию инвестиционных проектов в акционерных обществах.*

***Ключевые слова:*** *акционерные общества, инвестиционные проекты, планирование инвестиций, инвестиционные риски, корпоративный риск, рыночный риск, финансовый риск, критерий риска, коэффициент локализации, коэффициент специализации, региональный инвестиционный потенциал, национальная экономика, эффективность инвестиций, гарантии финансирования.*

## KIRISH

Zamonaviy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini rejalashtirish jarayoni nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar etish, balki mavjud risklarni kompleks baholash, hududiy investitsion salohiyatni aniqlash va loyihalarning iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda belgilashni talab etmoqda. Kapital bozorlarining rivojlanishi, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalashuvi hamda bozor kon'yunkturasidagi oʻzgaruvchanlik aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya qarorlarini qabul qilishda aniq mezonlarga asoslangan rejalashtirish tizimini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faoliyatida korporativ, bozor va moliyaviy risklar oʻzaro bogʻliq holda namoyon boʻladi. Shu sababli investitsiya loyihalarini rejalashtirishda risklarni alohida-alohida emas, balki integrallashgan baholash asosida tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda taklif etilgan yangi investitsiya xatari koʻrsatkichi investorlar, banklar va emitentlar uchun yagona “risk mezoni”ni shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, risk koʻrsatkichining 0,28 dan 0,16 gacha boʻlgan qiymatlari “juda yuqori xavf” zonasi sifatida baholanib, bunday sharoitda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish ehtiyotkor yondashuvni talab etadi. Koʻrsatkichning 0,42 darajaga yetishi esa moliyaviy tiklanish jarayoni boshlanganini anglatadi, biroq loyihalarni moliyalashtirishda qoʻshimcha kafolatlar va risklarni kamaytiruvchi mexanizmlardan foydalanish zarurligini koʻrsatadi.

Shuningdek, investitsiya loyihalarini rejalashtirishda hududiy iqtisodiy imkoniyatlarni baholash alohida ahamiyatga ega. Chunki investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish samaradorligi ularning qaysi hudud, tarmoq yoki ishlab chiqarish yoʻnalishiga yoʻnaltirilishiga bevosita bogʻliqdir. Shu nuqtayi nazardan, mahalliylashtirish va ixtisoslashuv koeffitsiyentlarini hisoblash asosida tahlil olib borish investitsiya resurslarini iqtisodiy oʻsish, hududiy takror ishlab chiqarish jarayoni va tarmoq salohiyati bilan uygʻunlashtirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini rejalashtirishda hududiy ustuvorliklarni aniqlash, investitsion faollikni oshirish va resurslardan maqsadli foydalanishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini rejalashtirish masalalari investitsiya xatarlarini integrallashgan baholash hamda mahalliylashtirish va ixtisoslashuv koeffitsiyentlari asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayoni risk mezonlari va hududiy iqtisodiy salohiyatni baholash bilan uzviy bogʻliq holda koʻrib chiqiladi. Amaliy jihatdan esa mazkur yondashuv aksiyadorlik jamiyatlari, investorlar va moliyalashtiruvchi institutlar uchun investitsiya loyihalarining xavf darajasini oldindan aniqlash, qoʻshimcha kafolatlar zarurligini baholash hamda investitsion resurslarni samarali rejalashtirish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini rejalashtirishda risklarni oldindan baholash va moliyalashtirish shartlarini aniqlash masalasi soʻnggi yillarda korporativ moliya tadqiqotlarining muhim yoʻnalishiga aylandi. T. Bagh, A.I. Hunjra, C.G. Ntim va M.M. Naseer tomonidan 2025-yilda olib borilgan tadqiqotda korporativ moliyaviy moslashuvchanlik, investitsiya samaradorligi va institutsional mulkchilik kompaniyalarning riskka moyilligi bilan uzviy bogʻliqligi asoslangan. Mualliflar 2014–2023-yillar oraligʻida 3571 ta Xitoy listing kompaniyalari ma'lumotlari asosida moliyaviy moslashuvchanlik korxonalarga riskli, biroq istiqbolli investitsiya qarorlarini qabul qilish imkonini berishini koʻrsatgan. Ushbu yondashuv investitsiya xatarlarini korporativ, bozor va moliyaviy risklarning integrallashgan bahosi orqali aniqlash zaruratini asoslaydi.

C.E. Anton tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda risk-menejment, barqarorlik va kompaniyalarning moliyaviy natijalari oʻrtasidagi bogʻliqlik tizimli adabiyotlar sharhi asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda risklarni boshqarish amaliyoti korxonalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va strategik qarorlar sifati bilan bevosita bogʻliqligi ta'kidlanadi. Mazkur ilmiy qarash aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini rejalashtirishda “risk mezoni”ni aniq indeks koʻrinishida shakllantirish, xususan, juda yuqori xavf zonasi hamda tiklanish bosqichini ajratib koʻrsatish metodologiyasiga mos keladi.

Z. Xiaojia tomonidan 2022-yilda ishlab chiqilgan moliyaviy risklarni baholash modelida investitsiya riski, operatsion risk, kapital harakati va bozor riski kabi mezonlar yagona baholash tizimida koʻrib chiqilgan. Tadqiqotda fuzzy analytic hierarchy process yondashuvi asosida risk omillarini tarkibiy jihatdan aniqlash va ularni baholash tizimini optimallashtirish masalalari yoritilgan. Ushbu yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya xatarlarini faqat bitta moliyaviy koʻrsatkich orqali emas, balki korporativ, bozor va moliyaviy risklarni integrallashgan holda baholash zarurligini ilmiy jihatdan qoʻllab-quvvatlaydi.

L. Gamidullaeva va hammualliflari 2022-yilda hududiy sanoat oʻsishiga ixtisoslashuv va mahalliylashgan iqtisodiyot ta'sirini tadqiq etgan. Mualliflar hududlarning tarmoq tarkibi, ixtisoslashuv darajasi va mahalliy iqtisodiy muhit regional iqtisodiy oʻsish sur'atlariga sezilarli ta'sir koʻrsatishini asoslagan. Mazkur tadqiqot investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish samaradorligini baholashda mahalliylashtirish va ixtisoslashuv koeffitsiyentlaridan

foydalanish zarurligini asoslaydi. Shu jihatdan, aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya loyihalarini rejalashtirishda hududiy takror ishlab chiqarish jarayoni va tarmoq salohiyatini inobatga olish muhim hisoblanadi.

S. Lee tomonidan 2025-yilda olib borilgan tadqiqotda hududiy tarmoq markaziyligi, sanoat ixtisoslashuvi va diversifikatsiyaning regional iqtisodiy oʻsishga taʼsiri oʻrganilgan. Tadqiqotda sanoat tuzilmasidagi oʻzgarishlar, xususan, avtomobil sanoati va elektromobillarga oʻtish sharoitida hududiy iqtisodiy oʻsish ixtisoslashuv hamda diversifikatsiya darajasiga bogʻliqligi koʻrsatib berilgan. Ushbu yondashuv investitsiya loyihalarini rejalashtirishda hududning mavjud ishlab chiqarish salohiyati, tarmoq ixtisoslashuvi va investitsion resurslarni joylashtirish samaradorligini baholash zarurligini ilmiy asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI:

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini rejalashtirish jarayonida investitsiya xatarlarini kompleks baholash, hududiy investitsion salohiyatni aniqlash hamda investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish samaradorligini asoslashga qaratilgan metodologik yondashuv qoʻllanildi. Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini korporativ moliya nazariyalari, investitsiya risklarini baholash konsepsiyalari, hududiy iqtisodiy rivojlanish va takror ishlab chiqarish jarayonlariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini rejalashtirishda risklarni aniqlash uchun korporativ, bozor va moliyaviy risklarning integrallashgan bahosiga asoslangan yangi investitsiya xatari koʻrsatkichidan foydalanish taklif etildi. Ushbu koʻrsatkich investorlar, banklar va emitentlar uchun investitsiya loyihalarining xavf darajasini aniq baholash, moliyalashtirish shartlarini belgilash va qoʻshimcha kafolatlar zarurligini aniqlash imkonini beradi. Xususan, risk koʻrsatkichining 0,28 dan 0,16 gacha boʻlgan qiymatlari “juda yuqori xavf” zonasi sifatida baholanib, mazkur holatda loyihani moliyalashtirish yuqori ehtiyotkorlikni talab etadi. Koʻrsatkichning 0,42 darajasi esa moliyaviy tiklanish bosqichi boshlanganini bildiradi, biroq loyihani moliyalashtirish uchun qoʻshimcha kafolatlar va risklarni kamaytiruvchi mexanizmlar zarurligini koʻrsatadi.

Shuningdek, tadqiqotda investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish samaradorligi va maqsadga muvofiqligini aniqlashda mahalliylashtirish koeffitsiyenti hamda ixtisoslashuv koeffitsiyentidan foydalanildi. Mazkur koeffitsiyentlar hududiy takror ishlab chiqarish jarayoni, iqtisodiy oʻsish surʼatlari, tarmoq salohiyati va investitsiya resurslarini joylashtirish samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Mahalliylashtirish koeffitsiyenti investitsiya loyihalarining hududiy iqtisodiyot bilan bogʻliqligini aniqlashga, ixtisoslashuv koeffitsiyenti esa hududning muayyan tarmoq yoki ishlab chiqarish yoʻnalishidagi ustunligini baholashga imkon beradi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, taqqoslama tahlil, indekslash, guruhlash, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, ekspert baholash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil usuli orqali investitsiya loyihalarini rejalashtirishga taʼsir etuvchi korporativ, bozor va moliyaviy risklar oʻzaro bogʻliq holda oʻrganildi. Indekslash usuli yordamida investitsiya xatarlari yagona mezon asosida baholandi. Taqqoslama tahlil orqali risk darajalari hamda hududiy investitsion salohiyat koʻrsatkichlari oʻzaro solishtirildi. Umumlashtirish usuli asosida esa aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini rejalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasining amaliy ahamiyati shundaki, u aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiya loyihalarini rejalashtirishda risk darajasini oldindan aniqlash, moliyalashtirish uchun zarur kafolatlarni belgilash, hududiy iqtisodiy imkoniyatlarni baholash va investitsiya resurslarini samarali yoʻnaltirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv investorlar, banklar va emitentlar uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishda aniq, kompleks va ilmiy asoslangan baholash mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA. NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish investitsiya xatarlarini kompleks baholash, moliyalashtirish manbalarining barqarorligini aniqlash hamda hududiy-iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish bilan bevosita bogʻliqdir. Chunki investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida faqat moliyaviy koʻrsatkichlarni tahlil qilish yetarli boʻlmay, korporativ boshqaruv sifati, bozor risklari, kapital tuzilmasi, pul oqimlari barqarorligi va hududdagi takror ishlab chiqarish jarayonlari ham inobatga olinishi zarur (1-jadval).

**1-jadval**
**Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya xatarlarini baholashda integrallashgan risk mezoni bo'yicha zonalar**

| Integrallashgan risk mezoni qiymati | Risk zonasi | Iqtisodiy talqini | Investor, bank va emitentlar uchun xulosa |
|---|---|---|---|
| **0,16-0,28** | Juda yuqori xavf zonasi | Korporativ, bozor va moliyaviy risklar ta'siri kuchli bo'lib, investitsiya loyihasining moliyaviy barqarorligi past darajada shakllangan. Pul oqimlari, kapital tuzilmasi yoki bozor sharoitlarida salbiy omillar ustunlik qiladi. | Investorlar uchun investitsiya kiritish tavsiya etilmaydi yoki faqat yuqori darajadagi kafolatlar asosida ko'rib chiqiladi. Banklar kredit ajratishda qat'iy cheklovlar qo'llashi lozim. Emitentlar risklarni kamaytirish bo'yicha choralar ishlab chiqishi zarur. |
| 0,29-0,41 | Yuqori xavf zonasi | Risk darajasi nisbatan pasaygan bo'lsa-da, korxonaning moliyaviy holati va investitsiya loyihasining qaytimi yetarli darajada ishonchli emas. Bozor va moliyaviy beqarorlik ta'siri saqlanib qoladi. | Moliyalashtirish ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi. Banklar qo'shimcha ta'minot, kafolat yoki risk mukofotini talab qilishi mumkin. Investorlar qaror qabul qilishda chuqurlashtirilgan tahlil o'tkazishi lozim. |
| 0,42 | Tiklanish bosqichi | Risk darajasida ijobiy siljish kuzatiladi. Korxona yoki loyiha moliyaviy tiklanish bosqichiga o'tgan, biroq barqaror moliyalashtirish uchun hali yetarli xavfsizlik darajasi shakllanmagan. | Moliyalashtirish imkoniyati mavjud, ammo qo'shimcha kafolatlar, garov, sug'urta yoki monitoring mexanizmlari talab etiladi. Investor va banklar uchun shartli ijobiy signal hisoblanadi. |
| 0,43 va undan yuqori | Nisbatan barqaror zona | Korporativ, bozor va moliyaviy risklarning salbiy ta'siri kamaygan, investitsiya loyihasining moliyaviy barqarorligi nisbatan yaxshilangan. | Investorlar uchun investitsiya jozibadorligi ortadi. Banklar moliyalashtirish shartlarini yumshoqroq ko'rib chiqishi mumkin. Emitentlar kapital jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. |

1-jadval ma'lumotlari aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya xatarlarini baholashda korporativ, bozor va moliyaviy risklarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda integrallashgan mezon asosida baholash zarurligini ko'rsatadi. Taklif etilgan integrallashgan risk mezoni investitsiya loyihasining xavflilik darajasini aniq zonalarga ajratish, investorlar, banklar va emitentlar uchun qaror qabul qilishda yagona baholash chegarasini shakllantirish imkonini beradi.

Xususan, risk mezoni **0,16-0,28 oralig'ida** bo'lganda loyiha "juda yuqori xavf zonasi"ga kiradi. Ushbu holatda korporativ boshqaruvdagi zaifliklar, bozor muhitidagi noaniqliklar va moliyaviy barqarorlikning pastligi investitsiya qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda investorlar uchun investitsiya kiritish yuqori xavf bilan bog'liq bo'lib, banklar tomonidan moliyalashtirish faqat kuchli garov, kafolat yoki boshqa himoya mexanizmlari mavjud bo'lgandagina ko'rib chiqilishi mumkin.

Risk mezonining **0,29-0,41 oralig'i** yuqori xavf saqlanib qolayotganini bildiradi. Bu bosqichda ayrim moliyaviy ko'rsatkichlarda nisbiy yaxshilanish kuzatilishi mumkin, biroq loyiha barqaror daromad keltirish va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish bo'yicha yetarlicha ishonchli hisoblanmaydi. Shu sababli investitsiya qarorlarini qabul qilishda qo'shimcha tahlil, risk mukofoti, ta'minot talablari va doimiy monitoring muhim ahamiyat kasb etadi.

Risk mezonining **0,42 darajaga yetishi** investitsiya loyihasida moliyaviy tiklanish boshlanganligini anglatadi. Biroq ushbu ko'rsatkich loyiha to'liq barqaror holatga o'tganini bildirmaydi. Mazkur bosqich investor va banklar uchun shartli ijobiy signal bo'lib, moliyalashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi, ammo qarorlar qo'shimcha kafolatlar, garov ta'minoti, sug'urta va kuchaytirilgan nazorat mexanizmlari asosida qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Risk mezoni **0,43 va undan yuqori** bo'lganda aksiyadorlik jamiyatining investitsiya loyihasi nisbatan barqaror zonaga o'tadi. Bu holatda korporativ, bozor va moliyaviy risklarning salbiy ta'siri kamayadi, pul oqimlari va moliyalashtirish imkoniyatlari nisbatan yaxshilanadi. Natijada investorlar uchun investitsiya jozibadorligi ortadi, banklar esa moliyalashtirish shartlarini nisbatan qulayroq ko'rib chiqishi mumkin (2-jadval).

**2-jadval**
**Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini baholashda mahalliylashtirish va ixtisoslashuv koeffitsiyentlari mezonlari**

| Ko‘rsatkich nomi | Hisoblash mazmuni | Baholash mezoni | Iqtisodiy talqini | Investitsiya qarori bo‘yicha xulosa |
|---|---|---|---|---|
| **Mahalliylashtirish koeffitsiyenti** | Hududda muayyan tarmoq yoki ishlab chiqarish yo‘nalishining umumiy iqtisodiy tarkibdagi ulushini respublika bo‘yicha shu tarmoq ulushi bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. | **K > 1** | Hududda mazkur tarmoq yoki ishlab chiqarish yo‘nalishi respublika o‘rtacha darajasidan yuqori shakllangan. Bu hududda mavjud resurslar, infratuzilma va ishlab chiqarish bazasi investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay ekanligini bildiradi. | Investitsiya kiritish maqsadga muvofiq. Hududda mavjud iqtisodiy salohiyatdan foydalanish orqali loyiha samaradorligini oshirish mumkin. |
| **Mahalliylashtirish koeffitsiyenti** | Hududiy ishlab chiqarish tarkibining milliy iqtisodiyotdagi o‘rtacha tarkibga nisbatan joylashuv ustunligini ifodalaydi. | **K = 1** | Hududdagi tarmoq ulushi respublika o‘rtacha darajasiga mos keladi. Bu holat hududda tarmoq rivojlanganligini, biroq yaqqol ustunlik hali shakllanmaganligini ko‘rsatadi. | Investitsiya qarori qo‘shimcha tahlil asosida qabul qilinadi. Bozor talabi, infratuzilma va resurs bazasi alohida baholanishi lozim. |
| **Mahalliylashtirish koeffitsiyenti** | Hududning muayyan tarmoq bo‘yicha nisbiy joylashuv darajasini baholaydi. | **K < 1** | Mazkur tarmoq hududda respublika o‘rtacha darajasidan past rivojlangan. Bu investitsiya uchun imkoniyat mavjudligini bildirishi mumkin, biroq ishlab chiqarish bazasi va infratuzilma yetarli emasligi xavfini ham ko‘rsatadi. | Investitsiya ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi. Dastlab infratuzilma, mehnat resurslari va bozor imkoniyatlari chuqur baholanishi zarur. |
| **Ixtisoslashuv koeffitsiyenti** | Hudud iqtisodiyotida ma’lum tarmoqning yetakchi o‘rin egallashi va takror ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatini aniqlaydi. | **K > 1** | Hudud muayyan tarmoq bo‘yicha ixtisoslashgan. Bu ishlab chiqarish zanjiri, mehnat resurslari, mahalliy xomashyo va bozor aloqalari nisbatan shakllanganligini bildiradi. | Investitsiyalarni jalb qilish yuqori samaradorlik berishi mumkin. Tarmoqni kengaytirish, modernizatsiya qilish va qo‘shimcha qiymat zanjirini rivojlantirish maqsadga muvofiq. |
| **Ixtisoslashuv koeffitsiyenti** | Hududning tarmoq bo‘yicha nisbiy iqtisodiy yo‘nalishini ifodalaydi. | **K = 1** | Hududda tarmoq respublika o‘rtacha darajasiga mos rivojlangan. Ixtisoslashuv belgisi mavjud, ammo kuchli ustunlik shakllanmagan. | Investitsiya qarorida tarmoqning istiqboli, talab hajmi va raqobat muhiti qo‘shimcha baholanadi. |
| **Ixtisoslashuv koeffitsiyenti** | Hududning ma’lum tarmoq bo‘yicha iqtisodiy ixtisoslashuv darajasini ko‘rsatadi. | **K < 1** | Hududda mazkur tarmoq bo‘yicha ixtisoslashuv past. Takror ishlab chiqarish jarayonida ushbu yo‘nalishning hududiy iqtisodiyotga ta’siri cheklangan. | Investitsiya kiritishdan oldin tarmoqni rivojlantirish shartlari, davlat qo‘llab-quvvatlashi va resurs bazasi aniqlanishi lozim. |

2-jadval ma’lumotlari milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyatini aniqlash, tarmoq tarkibini baholash hamda investitsiya resurslarini maqsadli yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda mahalliylashtirish va ixtisoslashuv koeffitsiyentlari hududdagi takror ishlab chiqarish jarayonining shakllanish darajasini aniqlashda muhim uslubiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahalliylashtirish koeffitsiyenti hududda muayyan tarmoq yoki ishlab chiqarish yo‘nalishining respublika o‘rtacha darajasiga nisbatan qay darajada jamlanganligini ifodalaydi. Agar koeffitsiyent **K > 1** bo‘lsa, bu hududda tegishli tarmoq respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori rivojlanganini anglatadi. Mazkur holat investitsiya kiritish uchun qulay iqtisodiy muhit mavjudligini, ya’ni resurslar, infratuzilma, mehnat salohiyati va

ishlab chiqarish bazasi yetarli darajada shakllanganini bildiradi.

Mahalliylashtirish koeffitsiyenti **K = 1** bo‘lganda hududdagi tarmoq rivojlanishi respublika o‘rtacha darajasiga mos keladi. Bu holatda investitsiya kiritish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, qaror qabul qilishda qo‘shimcha omillar — bozor talabi, infratuzilma sifati, xomashyo bazasi, transport-logistika sharoitlari va raqobat muhiti alohida baholanishi lozim. Demak, bu zona investitsiya uchun neytral holat bo‘lib, chuqurlashtirilgan iqtisodiy tahlilni talab qiladi.

Agar mahalliylashtirish koeffitsiyenti **K < 1** bo‘lsa, hududda mazkur tarmoqning rivojlanish darajasi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan past ekanligini bildiradi. Bunday holatda investitsiya kiritish yuqori ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak, chunki ishlab chiqarish bazasi, infratuzilma yoki mehnat resurslari yetarli darajada shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkich ayrim hollarda yangi investitsiya imkoniyatlari mavjudligini ham ko‘rsatadi, biroq bunday qaror davlat qo‘llab-quvvatlashi va infratuzilmaviy tayyorgarlik bilan bog‘liq holda qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Ixtisoslashuv koeffitsiyenti esa hudud iqtisodiyotida muayyan tarmoqning yetakchi o‘rin egallashini va takror ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatini baholaydi. **K > 1** bo‘lishi hududning ma’lum tarmoq bo‘yicha ixtisoslashganligini bildiradi. Bu holat investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshiradi, chunki hududda ishlab chiqarish zanjiri, mahalliy xomashyo, mehnat ko‘nikmalari va bozor aloqalari nisbatan shakllangan bo‘ladi.

Ixtisoslashuv koeffitsiyenti **K = 1** bo‘lganda hudud tarmoq bo‘yicha respublika o‘rtacha darajasida rivojlangan hisoblanadi. Bunda investitsiya qarori tarmoqning kelgusidagi o‘sish salohiyati, talab hajmi, innovatsion rivojlanish imkoniyati va raqobatbardoshlik darajasiga qarab qabul qilinadi. **K < 1** bo‘lishi esa hududda mazkur tarmoq bo‘yicha ixtisoslashuv pastligini, investitsiya kiritishdan oldin tarmoqni rivojlantirish shartlari va institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini aniqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mahalliylashtirish va ixtisoslashuv koeffitsiyentlari investitsiyalarni hududlar va tarmoqlar kesimida samarali joylashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali investitsiya resurslari iqtisodiy salohiyati yuqori, takror ishlab chiqarish jarayoni shakllangan va tarmoq ixtisoslashuvi mavjud hududlarga yo‘naltiriladi. Natijada investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi oshadi, hududiy iqtisodiy o‘sish rag‘batlantiriladi hamda milliy iqtisodiyotda tarkibiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini rejalashtirish jarayoni faqat moliyaviy resurslarni jalb etish yoki loyiha rentabelligini aniqlash bilan cheklanmasligi lozim. Mazkur jarayonda korporativ, bozor va moliyaviy risklarni o‘zaro bog‘liq holda baholash, hududiy investitsion salohiyatni aniqlash hamda investitsiya resurslarini iqtisodiy o‘sish va takror ishlab chiqarish jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada aynan shu yondashuv asosida investitsiya loyihalarini rejalashtirishda kompleks baholash mexanizmini shakllantirish zarurligi asoslangan .

Tadqiqotda taklif etilgan integrallashgan risk mezoni aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarining xavflilik darajasini aniq zonalar bo‘yicha tasniflash imkonini beradi. Xususan, risk mezonining 0,16–0,28 oralig‘i “juda yuqori xavf zonasi” sifatida baholanib, bunday holatda investitsiya kiritish yoki bank moliyalashtirishini amalga oshirish faqat yuqori darajadagi kafolatlar, garov ta’minoti va kuchaytirilgan monitoring asosida ko‘rib chiqilishi lozim. 0,29–0,41 oralig‘i yuqori xavf saqlanib qolayotganini bildiradi va bu bosqichda chuqurlashtirilgan moliyaviy tahlil, risk mukofoti hamda qo‘shimcha ta’minot talab etiladi. 0,42 daraja esa moliyaviy tiklanish boshlanganini anglatadi, biroq loyiha to‘liq barqaror bosqichga o‘tmagani sababli qo‘shimcha kafolatlar va nazorat mexanizmlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari mahalliylashtirish va ixtisoslashuv koeffitsiyentlari investitsiya loyihalarini hududlar va tarmoqlar kesimida samarali rejalashtirishda muhim uslubiy vosita ekanligini ko‘rsatadi. Mahalliylashtirish koeffitsiyenti hududda muayyan tarmoq yoki ishlab chiqarish yo‘nalishining respublika o‘rtacha darajasiga nisbatan qay darajada shakllanganini aniqlashga xizmat qiladi. Ixtisoslashuv koeffitsiyenti esa hudud iqtisodiyotida ma’lum tarmoqning yetakchi o‘rni, ishlab chiqarish zanjiri, mehnat resurslari, xomashyo bazasi va bozor aloqalarining rivojlanganlik darajasini baholash imkonini beradi.

koeffitsiyentlarning K > 1 holati hududda tegishli tarmoq bo‘yicha nisbiy ustunlik mavjudligini bildiradi va bunday hududlarga investitsiya kiritish yuqori samaradorlik berishi mumkin. K = 1 holatida investitsiya qarori qo‘shimcha tahlil asosida qabul qilinishi, ya’ni bozor talabi, infratuzilma, transport-logistika imkoniyatlari va raqobat muhiti alohida baholanishi zarur. K < 1 holatida esa investitsiya kiritish ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilib, avvalo tarmoqni rivojlantirish shartlari, davlat qo‘llab-quvvatlashi va resurs bazasi chuqur o‘rganilishi lozim.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini rejalashtirishda integrallashgan risk mezoni, mahalliylashtirish koeffitsiyenti va ixtisoslashuv koeffitsiyentlaridan foydalanish investitsiya

qarorlarining ilmiy asoslanganligini oshiradi. Mazkur yondashuv investorlar, banklar va emitentlar uchun loyiha xavflarini oldindan aniqlash, moliyalashtirish shartlarini to‘g‘ri belgilash, hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish va investitsiya resurslarini maqsadli yo‘naltirish imkonini beradi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini rejalashtirish samaradorligini oshirish uchun risklarni integrallashgan baholash tizimini amaliyotga joriy etish, hududiy va tarmoq salohiyatini koeffitsiyentlar asosida aniqlash hamda moliyalashtirish qarorlarini qo‘shimcha kafolatlar, monitoring va iqtisodiy maqsadga muvofiqlik mezonlari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bunday yondashuv investitsiya loyihalarining barqarorligini ta’minlash, hududiy iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va milliy iqtisodiyotda tarkibiy muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bagh T., Hunjra A.I., Ntim C.G., Naseer M.M. Capitalizing on Risk: How Corporate Financial Flexibility, Investment Efficiency, and Institutional Ownership Shape Risk-Taking Dynamics. International Review of Economics & Finance, 2025.
2. Anton C.E. Perspectives on Integrating Risk Management and Sustainability in Corporate Financial Performance. Sustainability, 2025.
3. Xiaojia Z. Research of the Financial Risk Evaluation Model Based on Fuzzy Analytic Hierarchy Process. Siam University, 2022.
4. Gamidullaeva L. va boshqalar. Exploring Regional Industrial Growth: Does Specialization Matter? Economies, 2022.
5. Lee S. The Power of Regional Centrality: Specialization, Diversity and Regional Economic Growth. Humanities and Social Sciences Communications, 2025.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 4**

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**